Annotatsiya. Yengil sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda investitsiyalar hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Chunki investitsiyalar korxonaning ishlab chiqarish quvvatini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mahsulot sifatini yaxshilash, tannarxni pasaytirish va yangi bozorlarga chiqish imkoniyatini kengaytiradi. Ayniqsa, yengil sanoatda texnologik investitsiyalar muhim ahamiyatga ega. Masalan, zamonaviy to'qimachilik, tikuvchilik va trikotaj uskunalariga investitsiya kiritish bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish hajmini oshirish, mehnat xarajatlarini kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkonini beradi. Ushbu jarayonni ilmiy tahlil qilish, uning xususiyatlarini aniqlash, mavjud muammolarni o'rganish hamda ularning yechimlariga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan shu masalalarni ilmiy tahlil qilish maqsad qilingan.

Kalit so'zlar: investitsiya, moliyalashtirish, raqobat muhiti, rag'batlantirish, investitsiya siyosati, yengil sanoat, moliyaviy instrument, xarajat, chegirib tashlash, moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Аннотация. Инвестиции являются одним из решающих факторов обеспечения конкурентоспособности предприятий лёгкой промышленности. Они способствуют увеличению производственных мощностей, внедрению современных технологий, повышению качества продукции, снижению себестоимости и расширению возможностей выхода на новые рынки. Особое значение в лёгкой промышленности имеют технологические инвестиции. Инвестирование в современное текстильное, швейное и трикотажное оборудование позволяет одновременно увеличивать объёмы производства, сокращать трудовые затраты и повышать качество продукции. Научный анализ данного процесса, выявление его особенностей, определение существующих проблем и разработка научных рекомендаций, направленных на их решение, являются актуальными задачами современного этапа развития лёгкой промышленности. Целью данной статьи является научный анализ указанных вопросов.

Ключевые слова: инвестиции, финансирование, конкурентная среда, стимулирование, инвестиционная политика, лёгкая промышленность, финансовый инструмент, затраты, вычет, финансовая поддержка.

Abstract. Investment is one of the decisive factors in ensuring the competitiveness of light industry enterprises. Investments contribute to increasing production capacity, introducing modern technologies, improving product quality, reducing production costs, and expanding opportunities to enter new markets. Technological investment is particularly important in the light industry. Investment in modern textile, garment, and knitwear equipment makes it possible to simultaneously increase production volumes, reduce labor costs, and improve product quality. Scientific analysis of this process, identification of its specific characteristics, determination of existing problems, and development of scientific recommendations aimed at addressing them are among the pressing issues of the current stage of light industry development. Therefore, this article aims to provide a scientific analysis of these issues.

Keywords: investment, financing, competitive environment, incentives, investment policy, light industry, financial instrument, costs, deduction, financial support.

KIRISH

Ma'lumki, investitsiyalar korxonaning ishlab chiqarish quvvatini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mahsulot sifatini yaxshilash, tannarxni pasaytirish va yangi bozorlarga chiqish imkoniyatini kengaytiradi. Yengil sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda investitsiyalarning roli korxonalarning ishlab chiqarish, texnologik, innovatsion, inson kapitali va eksport salohiyatini modernizatsiya qilish orqali mahsulot



tannarxini optimallashtirish, sifat va mehnat unumdorligini oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda barqaror raqobat ustunligini shakllantirishdan iborat.

Shuningdek, ushbu mavzuni ilmiy tadqiqotda «investitsiyalar → raqobatbardoshlik» bog'liqligi asosida baholash uchun investitsiya hajmi, investitsiya samaradorligi, asosiy fondlarning yangilanish koeffitsiyenti, mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi, eksport ulushi, innovatsion mahsulot ulushi va rentabellik kabi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin.

Bugungi kunda yengil sanoat tarmog'iga investitsiyalarni jalb qilishda muhim amaliy choralar ko'rilishiga qaramasdan, bugungi islohotlarning hozirgi sharoitida yengil sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda investitsiyalarning rolini institutsional-moliyaviy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yengil sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda investitsiyalarning rolini oshirish bilan bog'liq munosabatlar xorijlik olimlardan: M.E.Porter, P.Krugman, J.Barney, C.K. Prahalad, D.J.Teece, G.Pisano, A. Shuen¹ kabi olimlarning ilmiy ishlarida tahlil qilingan bo'lsa, mahalliy olimlarimizdan: I.Toshpulatov, A.Nazarova, A. Burxanov, M.Baltabayev, N.Haydarov² kabi olimlarimizning ilmiy tadqiqotlarida birmuncha e'tibor qaratilgan. Shu bilan birgalikda bugungi kunda keyingi islohotlar davrida qo'yilayotgan masalaning ilmiy tomonlariga yetarlicha e'tibor berilmaganligini ham ta'kidlash zarur, shundan kelib chiqqan holda mazkur maqolaning asosiy negizi sifatida O'zbekistonda yengil sanoat tarmog'iga investitsiyalarni jalb qilish tizimining institutsional-moliyaviy tahlil qilish asos qilib olindi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekistonda yengil sanoat tarmog'iga investitsiyalarni jalb qilish tizimining institutsional-moliyaviy tahlili bilan bog'liq tadqiqotlarda ilmiy tadqiqotlarni tadqiq etishda ilmiy tadqiqot metodologiyasi doirasida ko'p qo'llanilib kelinadigan tadqiqot usullaridan keng foydalanishni taqozo etadi. Jumladan, deduksion yoki induksion, sintez va tahlil, guruhlash va qayta ishlash, dialektik, abstrakt, mantiqiylik, taqqoslama, abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda statistik usullardan keng foydalaniladi. Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar qisqa tahlil qilinadi, ular umumlashtiriladi, yengil sanoat korxonalarida raqobat muhitini ta'minlashda investitsiyalarning roli ilmiy jihatdan tahlil qilinadi va bunda ilmiy tadqiqot metodologiyasining usullaridan foydalaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda yengil sanoatni, ayniqsa, to'qimachilik va tikuv-trikotaj tarmog'ini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish so'nggi yillarda xomashyoni eksport qilishdan yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tishning asosiy vositalaridan biriga aylandi. Bu yondashuv korxonalar raqobatbardoshligini faqat ishlab chiqarish hajmi orqali emas, balki texnologiya, mahsulot sifati, mehnat unumdorligi, eksport va qo'shilgan qiymat orqali ta'minlash imkonini bermoqda.


O'zbekistonda yengil sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda investitsiyalar rolini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar tarmoqni xomashyoga yo'naltirilgan ishlab chiqarish modelidan yuqori qo'shilgan qiymatli, texnologik va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish modeliga o'tkazishga qaratilgan. Bunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, zamonaviy texnologik uskunalarni joriy etish, klasterlarni rivojlantirish, paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksport infratuzilmasini rivojlantirish asosiy mexanizmlar bo'lmoqda. 2025-yilda tarmoqqa 2,1 mlrd dollar xorijiy investitsiya o'zlashtirilishi va eksportning 2,5 mlrd dollarga yetishi ushbu investitsion siyosatning amaliy natijalarini ko'rsatadi.

1 Porter M.E. Txe Kompetitive Advantage of Natiyons. — New York: Free Press, 1990., Porter M.E. Kompetitive Advantage: Kreating and Sustaining Superior Performance. — New York: Free Press, 1985., Krugman P. Kompetitivebness: A Dangerous Obsession // Foreign Affairs. — 1994. — Vol. 73, No. 2. — P. 28–44., Barney J. Firm Resources and Sustained Competitive Advantage // Journal of Management. — 1991. — Vol. 17, No. 1. — P. 99–120., Prahalad C.K., Hamel G. Txe Core Competence of the Corporation // Harvard Business Review. — 1990. — Vol. 68, No. 3. — P. 79–91., Teece D.J., Pisano G., Shuen A. Dynamic Capabilities and Strategic Management // Strategic Management Journal. — 1997. — Vol. 18, No. 7. — P. 509–533.

2 Toshpulatov I.A. Yengil sanoat korxonalari raqobatbardoshligini boshqarish tizimini takomillashtirish // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. — 2019. — № 2 (mart-aprel), Nazarova A.N. To'qimachilik sanoatida investitsiya muhiti va unga ta'sir qiluvchi omillar tahlili. — 2025. — B. 9–12. DOI: 10.5281/zenodo.17597203., Burxanov A.U. Korxonalar moliyaviy barqarorligi: monografiya. — T., 2019. — 160 b., Oqboyev A.R. Tadbirkorlik sub'yektlarining eksport faoliyatida xalqaro standartlarni joriy etishning metodologik asoslarini takomillashtirish (Farg'ona vodiysidagi to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalari misolida): i.f.d. (DSc) diss. avtoreferati. — T., 2025., Baltabayev M.R. To'qimachilik sanoati eksport imkoniyatlarini rivojlantirishda marketing strategiyasi: iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. — T.: TDIU, 2005., Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari: i.f.d. diss. — T., 2003.



So'nggi besh yil davomida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, 2025-yil yanvar-dekabr oylarida ushbu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan qariyb 1,8 barobarga oshdi (1-rasm).




1-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi³

■ hajm, trln so'mda ■ o'sish sur'ati

So'nggi besh yil ichida o'sish sur'atlarini ko'radigan bo'lsak, ular o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lib, 2024-yilda eng yuqori o'sish sur'ati – 131,3 % kuzatilgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida ushbu ko'rsatkich 110,5 %ni tashkil etganligini ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 238,5 trln so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 40,3 %ini tashkil etdi, qurilish-montaj ishlari bo'yicha 282,5 trln so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 47,8 %) va boshqa xarajatlarga 70,1 trln so'm (11,9 %) o'zlashtirildi. Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalari natijasida ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 160,5 trln so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 27,2 %i o'zlashtirildi.

Bu borada eng muhim yo'nalishlardan biri investitsiyalarni jalb qilish va investitsiya loyihalarini kengaytirish bo'lib, O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash umumiy iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishiga aylandi. 2017-yildan 2025-yilgacha mamlakat iqtisodiyotiga barcha manbalar hisobidan 196 mlrd dollar investitsiya, shundan 87 mlrd dollar xorijiy investitsiya jalb qilingan, 2025-yilda investitsiyalar hajmi 40,2 mlrd dollardan oshgan. Yengil sanoat nuqtayi nazaridan bu jarayonning ahamiyati shundaki, xorijiy investitsiyalar nafaqat moliyaviy resurs, balki zamonaviy texnologiya, boshqaruv tajribasi, xalqaro standartlar va tashqi bozorlarga chiqish kanallarini ham olib kiradi. Shu sababli ilmiy jihatdan xorijiy investitsiyalarning ta'sirini: **Xorijiy investitsiya → texnologiya transferi → mehnat unumdorligi → mahsulot sifati → eksport raqobatbardoshligi** zanjiri orqali baholash mumkin (2-rasm).



2-rasm. O'zbekistonda yengil sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda investitsiyalar rolini oshirish yo'nalishlari⁴

3 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

4 Muallif tomonidan tuzilgan.



Keyingi muhim yo'nalish bu to'qimachilik sanoatida investitsiyalarning real natijasi bo'lib, bu yo'nalishda eng muhim natijalardan biri tarmoqda investitsiyalarning sezilarli darajada ko'payganidir. Masalan, 2025-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston to'qimachilik sanoatida ishlab chiqarish hajmi **134 trln so'm**, o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar **2,1 mlrd dollar**, eksport **2,5 mlrd dollar** va bandlik **623 ming kishini** tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar investitsiyalarning tarmoqdagi raqobatbardoshlikka ta'siri borligini ko'rsatadi. Biroq ilmiy tahlilda investitsiya hajmining o'zi yetarli mezon emas, bir **dollar investitsiya hisobiga qancha qo'shimcha eksport, ish o'rni, qo'shilgan qiymat va mehnat unumdorligi yaratilganini** ham baholash zarur.

Xomashyoni chuqur qayta ishlashga investitsiya yo'naltirish ham tarmoqda raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yengil sanoat raqobatbardoshligini oshirishda eng muhim tarkibiy o'zgarish bu paxta → tola → ip → mato → trikotaj → tayyor kiyim zanjirini shakllantirishdir, chunki bu borada Muhtaram Prezidentimiz tomonidan paxta tolasini qayta ishlashni yanada chuqurlashtirish, gazlama, trikotaj va tayyor mahsulot ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan edi. Buning iqtisodiy mohiyati shundaki, bir xil miqdordagi paxta xomashyosidan ko'proq qo'shilgan qiymat olish imkoniyati paydo bo'ladi. Shuning uchun investitsiyalarning raqobatbardoshlikka ta'sirini faqat korxona quvvatining o'sishi bilan emas, balki bir tonna xomashyo → yaratilgan qo'shilgan qiymat ko'rsatkichi orqali ham baholash ilmiy jihatdan maqbul hisoblanadi.

Zamonaviy texnologiyalarga investitsiya kiritish ham raqobatbardoshlikni oshirishning muhim yo'nalishi sifatida boshqa tarmoqlar singari yengil sanoatda ham katta ta'sirga egadir, chunki investitsiyalarning yana bir muhim yo'nalishi **texnologik modernizatsiya** bo'lib, amaliy jihatdan qaraydigan bo'lsak, 2025-yilda Andijondagi "WBM Fabrics" korxonasida 50 mln dollarlik investitsiya loyihasi doirasida Italiya va Germaniyadan yuqori texnologik uskunalar o'rnatilib, matoni bo'yash va gul solish jarayonlari yo'lga qo'yilgan bo'lib, korxonaning yillik quvvati 24 ming tonnani tashkil etadiki, ushbu misol investitsiyalarning raqobatbardoshlikka **ekstensiv emas, intensiv ta'sirini** ko'rsatadi. Shu jihatdan qaraganda, investitsiyalar yengil sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatini oshiradi, mahsulot sifatini yaxshilaydi, energiya va mehnat sarfini optimallashtiradi, mahsulot turlarini ko'paytiradi, xalqaro bozor talablariga moslashish imkonini beradi. Shuning uchun yengil sanoatda investitsiya siyosatining asosiy maqsadi **ko'proq investitsiya jalb qilish emas, raqobatbardoshlikni ko'proq oshiradigan investitsiyalarni jalb qilish lozim deb hisoblaymiz.**

Klasterlarni investitsiyalanish orqali raqobatbardoshlikni oshirishning ta'sirchan mexanizmlaridan biri sifatida qayd etish lozim, chunki O'zbekistonda yengil sanoatda klasterlashuv jarayoni investitsiyalar samaradorligini oshirishning muhim mexanizmiga aylanmoqda. Klaster modelida paxta yetishtirish, xomashyoni qayta ishlash, ip-kalava, mato, bo'yash, trikotaj va tayyor kiyim ishlab chiqarish bosqichlari o'zaro bog'lanadi. Masalan, 2026-yil mart oyida Buxoro viloyatidagi "Merganteks" paxta-to'qimachilik klasteri tarkibidagi "Nigora" fabrikasida 35 mln dollarlik investitsiya loyihasi asosida paxta xomashyosidan tayyor mato va kiyim-kechakkacha bo'lgan uzluksiz ishlab chiqarish zanjiri yo'lga qo'yilgani qayd etildiki, ushbu holatni ilmiy jihatdan vertikal integratsiyaga asoslangan investitsion model sifatida baholash mumkin. Uning asosiy afzalligi: xomashyo xarajati → logistika xarajati → qayta ishlash xarajati → tayyor mahsulot tannarxi zanjirida xarajatlarni optimallashtirish imkonini yaratishdir.

Respublikamizda yengil sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishda investitsiyalarning rolini ko'rsatib beradigan jihatlardan biri yana biri bu eksportbop mahsulot ishlab chiqarishga investitsiyalarni yo'naltirish bo'lib, raqobatbardoshlikning eng muhim natijalaridan biri bu tashqi bozorda mahsulot sotish qobiliyatidir. Tahlillarga qaraydigan bo'lsak, 2025-yilda to'qimachilik mahsulotlari eksporti 2,5 mlrd dollarga yetgan. Shu bilan birga, tarmoqda 623 ming kishi band bo'lganki, demak, investitsiyalar: **ishlab chiqarish → eksport → valyuta tushumi → investitsiyalarni qayta moliyalashtirish** doirasini shakllantirmoqda. Biroq bu yerda muhim muammo mavjud: eksport hajmining o'sishi avtomatik ravishda yuqori raqobatbardoshlikni anglatmaydi. Eksport tarkibida **tayyor kiyim-kechak, brendli mahsulotlar va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushi** ham baholanishi lozim deb hisoblaymiz.

Respublikamizda yengil sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishda investitsiyalarning rolini oshirish yo'nalishida investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish jarayoni ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu jihatdan to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarini investitsiya bilan ta'minlashda davlat va tijorat banklari resurslari, xalqaro moliya institutlari, xorijiy bank kredit liniyalari va maxsus kredit mexanizmlaridan foydalanish nazarda tutilgan. Xususan, 2020–2025-yillarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining **300 mln dollarlik kredit liniyalari**, tijorat banklari kreditlari, xalqaro moliya institutlari va xorijiy banklar kredit liniyalaridan foydalanish belgilangan. Bu yondashuvning ijobiy tomoni korxonalarning faqat o'z mablag'lariga qaramligini kamaytirish hisoblanadi, ammo, fikrimizcha, ilmiy nuqtayi nazardan investitsiya manbalari **arzonligi, muddati, valyuta xavfi va investitsiya loyihasining qaytish muddati** bo'yicha baholanishi zarur bo'ladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida amalga oshirilgan ilmiy tahlillardan kelib chiqib, ta'kidlash mumkinki, bugungi kunda yengil sanoat tarmog'ida investitsiyalarning raqobatbardoshlikka ta'sir etishidagi asosiy muammolardan biri bu O'zbekistonda investitsiyalar hajmini oshirish bo'yicha sezilarli natijalarga erishilgan bo'lsa-da, **investitsiya hajmi bilan raqobatbardoshlik natijasi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri va proporsional bog'liqlik mavjud deb qarashning mavjudligi bo'lib, vaholanki, tarmoqda** investitsiyaning samarasi quyidagi omillarga bog'liq bo'lib qolmoqda: Ya'ni, investitsiyaning texnologik tarkibi, uskunalarining innovatsion darajasi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti, mehnat unumdorligi, mahsulotning qo'shilgan qiymati, eksportga yo'naltirilganlik, energiya sarfi, logistika xarajatlari, xalqaro sertifikatlash va marketing va brendlashga va shu kabilarga.

Shuning uchun **investitsiya hajmini oshirishdan investitsiya samaradorligini oshirishga o'tish** O'zbekiston yengil sanoati uchun muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

O'zbekistonda yengil sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda investitsiyalar rolini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar **tarmoqni xomashyoga yo'naltirilgan ishlab chiqarish modelidan yuqori qo'shilgan qiymatli, texnologik va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish modeliga o'tkazishga qaratilgan**. Bunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, zamonaviy texnologik uskunalarni joriy etish, klasterlarni rivojlantirish, paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksport infratuzilmasini rivojlantirish asosiy mexanizmlar bo'lmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yengil sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda investitsiyalarning rolini oshirishda quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim deb hisoblaymiz.

Birinchidan, ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiya qilish va raqamlashtirish, **ikkinchidan**, innovatsion va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga investitsiya kiritish, **uchinchidan**, eksport salohiyati va xalqaro bozorlarga chiqishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, **to'rtinchidan**, inson kapitali va ilmiy-tadqiqot salohiyatiga investitsiyalarni ko'paytirish yengil sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda investitsiyalar rolini oshirishga ijobiy ta'sir qiladi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi "Yengil sanoat sohasida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish to'g'risida" PF-174-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7737257>
3. Porter M.E. *The Competitive Advantage of Nations*. – New York: Free Press, 1990; Porter M.E. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. – New York: Free Press, 1985.
4. Krugman P. Competitiveness: A Dangerous Obsession // *Foreign Affairs*. – 1994. – Vol. 73, No. 2. – P. 28–44.
5. Barney J. Firm Resources and Sustained Competitive Advantage // *Journal of Management*. – 1991. – Vol. 17, No. 1. – P. 99–120.
6. Prahalad C.K., Hamel G. The Core Competence of the Corporation // *Harvard Business Review*. – 1990. – Vol. 68, No. 3. – P. 79–91.
7. Teece D.J., Pisano G., Shuen A. Dynamic Capabilities and Strategic Management // *Strategic Management Journal*. – 1997. – Vol. 18, No. 7. – P. 509–533.
8. Toshpo'latov I.A. Yengil sanoat korxonalari raqobatbardoshligini boshqarish tizimini takomillashtirish // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar* ilmiy elektron jurnali. – 2019. – № 2 (mart–aprel).
9. Nazarova A.N. To'qimachilik sanoatida investitsiya muhiti va unga ta'sir qiluvchi omillar tahlili. – 2025. – B. 9–12. DOI: 10.5281/zenodo.17597203.
10. Burxanov A.U. *Korxonalar moliyaviy barqarorligi*: monografiya. – T., 2019. – 160 b.
11. Oqboev A.R. Tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatida xalqaro standartlarni joriy etishning metodologik asoslarini takomillashtirish (Farg'ona vodiysidagi to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalari misolida): i.f.d. (DSc) diss. avtoreferati. – T., 2025.
12. Baltabaev M.R. To'qimachilik sanoati eksport imkoniyatlarini rivojlantirishda marketing strategiyasi: iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – T.: TDIU, 2005; Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari: i.f.d. diss. – T., 2003.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>